

**O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi  
Huzuridagi Ilmiy-texnik Kengash to‘g‘risida  
Nizom**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik deb nomlanadi) huzuridagi ilmiy-texnik Kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash deb nomlanadi) doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi organ hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi, “Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi PK-436-sonli “Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 apreldagi 143-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi, 1997 yil 23 dekabrda 558-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risida”gi va 1998 yil 7 oktyabrda 427-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq vazirlik vakolatiga kiruvchi vazifalardan kelib chiquvchi muhim, dolzarb muammolarga doir huquqiy – me‘yoriy hujjatlar, o‘quv – uslubiy qo‘llanmalar, soxaviy adabiyotlar va ko‘rgazmali materiallarni ko‘rib chiqish, xulosalar berish hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishini nazorat qilish maqsadida tashkil etiladi.

Kengash vazirlik, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari, respublikaning tegishli vazirlik, idora, ilmiy – tadqiqot institutlari va birlashmalari mutaxassislari tarkibidan tashkil etiladi. Kengash Nizomi va uning tarkibini tasdiqlash hamda o‘zgartirishlar kiritish Favqulodda vaziyatlar vaziri buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Dolzarb muammolar bo‘yicha Kengash qarorlarining amaliyotga tatbiq etilishi vazirlik Hay‘atida muhokama etiladi.

II. KENGASHNING TARKIBI VA TUZILISHI

2.1. Kengashning ishchi organi Hay‘at, seksiyalar va kotibiyat hisoblanadi.

2.2. Kengash risi, Kengash risi o‘rinbosari, seksiya rahbarlari, Kengash kotibi kiradi.

2.3. Kengash faoliyatining muntazam va samarali bo‘lishini ta‘minlash maqsadida uning tarkibida yo‘nlislar bo‘yicha seksiyalar tuzilib, Kengash yig‘ilishi bayoni bilan tasdiqlanadi. Mazkur seksiyalar turlari (nomi), soni va uning tarkibi ehtiyoj asosida o‘zgarishi mumkin. Har bir seksiyaning rahbari va uning

tarkibi (Kengash tarkibidan yoki ehtiyojiga qarab belgilangan tartibda boshqa mutaxassislar) Kengash yig'ilishining bayoni bilan tasdiqlanadi. Seksiya rahbari bir vaqtning o'zida Kengash raisining o'rinbosari va Kengash a'zosi bo'lishi mumkin.

2.4. Kengash doimiy apparatining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri tomonidan belgilanadi.

### III. KENGASH ISHINI TASHKIL ETISH

3.1. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari, Favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari, vazirlik Hay'at majlisi qarori va mazkur nizom hamda Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadigan reja asosida tashkil etadi.

3.2. Kengash raisi belgilangan tartibda Kengash ish faoliyatiga rahbarlik qiladi va unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishiga mas'ul hisoblanadi.

Kengash raisi bo'lmaganda uning funksiyalarini o'rinbosari – vazirlik Aholi va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'i bajaradi.

3.3. Kengash ishi kollegiyalik tamoyillari asosida har tomonlama muhokama qilish, o'zaro fikr almashish, sohaga oid masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va horijiy davlatlar ilm-fandagi yutuqlarni hisobga olgan holda, jamoatchilik asosida hamkorlikda ish olib borishga jalb etilgan ilmiy xodimlar va mutaxassislarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlari asosida olib boriladi.

3.4. Kengash faoliyatini reja asosida tashkil etish, yig'ilishlar o'tkazilishini nazorat qilish va belgilangan tartibda rasmiylashtirish Kengash kotibining zimmasiga yuklatiladi.

3.5. Kengash qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan Kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi bilan qabul qilinadi.

3.6. Kengash tomonidan ko'rib chiqishga qabul qilingan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida Kengash o'z vakoloti doirasida vazirlik rahbariyatiga belgilangan tartibda takliflar kiritadi.

3.7. Kengash vazirlik faoliyatiga tegishli bo'lgan ilmiy-texnik va grant asosida amalga oshiriladigan tadbirlarni muhokama etadi va belgilangan tartibda takliflar tayyorlaydi.

3.8. Kengash faoliyatida zaruriyatga ko'ra, boshqa tashkilotlarning fan va texnika sohalari bo'yicha malakali mutaxassislari ilmiy ekspertlar sifatida jalb etilishlari mumkin.

3.9. Kengash faoliyatini qaytadan tashkil etish yoki faoliyatini tugatish Favqulodda vaziyatlar vazirining qarori asosida amalga oshiriladi.

### IV. KENGASHNING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI.

4.1. Kengash o'z faoliyatida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning profilaktikasini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda respublika aholisi va hududlarini muhofaza qilish. Iqtisodiyot ob'ektlari faoliyatining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli ilmiy-texnik dasturlar

loyihalarini ishlab chiqish va ko'rib chiqilishi uchun belgilangan tartibda vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

Aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, adabiyotlar, tavsiyalar, me'yoriy hujjatlar, ma'ruzalar va ko'rgazmali materiallar loyihalarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish, qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etish uchun vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va belgilangan tartibda takliflar kiritish;

ilmiy-texnik Kengashi tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, adabiyotlar, tavsiyalar, me'yoriy hujjatlarning amaliyotga tatbiq etilishini tekshirish va nazoratga olish.

4.2. Kengash o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha ustuvor yo'nalishlardagi ilmiy-tadqiqotlarni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasiga belgilangan tartibda tavsiyalarni tayyorlash va taqdim etish;

zamonaviy texnika va jixozlarni ishlab chiqish, sotib olish, ularni qo'llash bo'yicha ekspert baholash xulosalarini tayyorlash;

aniq maqsadli yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar bo'yicha bajarilgan hisobotlarni muhokama qilish, tugallangan ishlar, shu jumladan, fuqaro muhofazasi yo'nalishida bajarilgan ishlarga xulosalar hamda ularni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berish;

vazirlik faoliyatiga bog'liq muammolarni echishda foydalanishi mumkin bo'lgan chet el safarlarining (ilmiy safarlari) hisobotlarini (ilmiy-texnik hisobotlar) ko'rib chiqish va takliflar tayyorlash;

vazirlik vakolati doirasida o'quv-uslubiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, ma'ruzalar, muammolar bo'yicha maqolalar materiallarini (shu jumladan, Boshqa tashkilotlar tomonidan tayyorlangan) ekspertizadan o'tkazish, ulardan foydalanish va nashr etish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosalar tayyorlash;

kengash o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muhokama etish maqsadida har chorakning 10 kuni ichida yig'ilish o'tkazadi, zaruriyat tufayli istisno tariqasida. Boshqa muddatlarda ham o'tkazilishi mumkin.

## V. KENGASH A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Kengash yig'ilishi Kengash tarkibiga (Kengash raisi, uning o'rinbosari va Kengash a'zolari) yig'ilishning o'tkaziladigan joyi, vaqtini ko'rsatib, yozma ravishda oldindan (yig'ilish kunidan 5 kun avval) taklif etilganliklari to'g'risida xabar berilgan holda ish vaqtida o'tkaziladi.

5.2. Vazirlik bosh boshqarma, boshqarmalar, tarkibiy tuzilmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlari (komandirlari) hamda vazirliklar, idoralar,

muassasalar va tashkilotlar rahbarlari Kengash a'zolarining faol ishlashlari uchun sharoit yaratishlari lozim.

5.3. Kengash tarkibi a'zosi yig'ilishda biror sabab bilan ishtirok eta olmasa, bu haqida Kengash Hay'atiga oldindan xabar berishi kerak.

5.4. Kengash tarkibi a'zosi ko'rilayotgan ish to'g'risida o'z fikrlarini asoslantirilgan holda bayon etish huquqiga ega bo'lib, belgilangan tartibda vakolati doirasida har bir ishga yozma xulosa berishi shart.

Kengash a'zosi ko'rib chiqilgan masalalarni muhokama qilish, Kengash ish rejasini tuzishda qatnashish, Kengash yig'ilishini tayyorlash, hujjatlar bilan yaqindan tanishish, o'z fikr-mulohazalarini kiritish, Kengash ishida hal qiluvchi ovoz berish huquqidqn to'la foydalanish, e'tiroz va tanbehlar bo'lganda o'zining alohida fikrini bayon etish, Kengash tarkibining har bir a'zosi alohida yoki guruh bo'lib Kengash vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha loyihalarni muhokamaga kiritish huquqiga ega.

5.5. Kengash kotibi:

Kengash yig'ilishi hujjatlari, ish rejalarini tayyorlashni amalga oshiradi, Kengash ish rejasi va qarorlarini bajarilishini nazorat qiladi hamda natijalari bo'yicha Kengash raisiga ma'lumot tayyorlaydi;

Kengash raisining topshirig'iga ko'ra, o'z vakolati doirasida manfaatdor tashkilotlar bilan yozishmalarni amalga oshiradi;

Kengash faoliyatining samaradorligini oshirish, ish usuli va uslubini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi;

Kengashning yillik faoliyati bo'yicha hisobot tayyorlaydi.

**Favqulodda vaziyatlar vazirligi**  
**Aholi va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasi**